

## XALQARO AUDIT STANDARTLARI ASOSIDA BANK AUDITINI TASHKIL QILISH

Ortiqov Dilmurod Sobir o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

[dilmurod210394@gmail.com](mailto:dilmurod210394@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15082365>

*Annotatsiya.* Ushbu ilmiy maqolada xalqaro audit standartlari (XAS) asosida bank auditini tashkil etishning nazariy asoslari, amaliy yondashuvlari va dolzarb masalalari chuqur tahlil qilinadi. Hozirgi global moliyaviy tizimda banklar faoliyatining shaffofligi, ishonchliligi va barqarorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jihatlarni ta’minlashda mustaqil auditorlar tomonidan xalqaro standartlarga asoslangan audit o’tkazilishi muhim rol o’ynaydi. Maqolada XASning asosiy prinsiplari, ularning bank auditidagi qo’llanilishi, banklarning moliyaviy hisobotlarini baholashdagi o’rni, shuningdek, audit jarayonining bosqichlari keng yoritilgan.

Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O‘zbekiston misolida xalqaro standartlarni joriy qilishdagi mavjud muammolar, jumladan, auditorlar malakasi, texnologik infratuzilma, axborot tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va ichki nazorat tizimining zaifligi kabi masalalarga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot davomida xalqaro tajriba asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular bank auditining sifatini oshirish, auditorlik jarayonini samarali tashkil etish va XASni milliy amaliyotga integratsiyalashga xizmat qiladi. Ushbu maqola bank sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, auditorlar hamda moliyaviy nazorat va tartibga solish organlari uchun nazariy va amaliy jihatdan foydali bo‘lishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Xalqaro audit standartlari, bank audit, moliyaviy hisobot, audit jarayoni, ichki nazorat, moliyaviy barqarorlik, xavflarni baholash, auditorlik xulosasi, audit sifati, xalqaro tajriba.

## ORGANIZATION OF A BANK AUDIT BASED ON INTERNATIONAL AUDITING STANDARDS

*Abstract.* This scientific article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations, practical approaches and current issues of organizing a bank audit based on international auditing standards (IAS). In the current global financial system, transparency, reliability and stability of bank activities are of great importance. Auditing by independent auditors based on international standards plays an important role in ensuring these aspects. The article extensively covers the basic principles of IAS, their application in bank audits, their role in assessing the financial statements of banks, as well as the stages of the audit process.

Also, attention is paid to the existing problems in the implementation of international standards in developing countries, in particular, in the case of Uzbekistan, including the qualifications of auditors, insufficient development of technological infrastructure, information systems and the weakness of the internal control system. During the study, proposals were developed based on international experience, which will serve to improve the quality of bank audits, effectively organize the audit process and integrate IAS into national practice. This article may be theoretically and practically useful for specialists working in the banking sector, auditors, and financial supervision and regulatory authorities.

**Keywords:** International auditing standards, bank audit, financial reporting, audit process, internal control, financial stability, risk assessment, audit opinion, audit quality, international experience.

## ОРГАНИЗАЦИЯ БАНКОВСКОГО АУДИТА НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ АУДИТА

**Аннотация.** В данной научной статье глубоко анализируются теоретические основы, практические подходы и актуальные проблемы организации банковского аудита на основе международных стандартов аудита (IAS). В современной мировой финансовой системе все большее значение приобретают прозрачность, надежность и стабильность деятельности банков. Аудит, основанный на международных стандартах независимыми аудиторами, играет важную роль в обеспечении этих аспектов. В статье широко освещены основные принципы HAS, их применение при банковском аудите, их роль в оценке финансовой отчетности банков, а также этапы аудиторского процесса.

Также в случае развивающихся стран, особенно Узбекистана, уделяется внимание существующим проблемам внедрения международных стандартов, включая квалификацию аудиторов, технологическую инфраструктуру, недостаточное развитие информационных систем, слабость системы внутреннего контроля. В ходе исследования на основе международного опыта были разработаны предложения, которые послужат повышению качества банковских проверок, эффективной организации аудиторского процесса, интеграции ВАС в национальную практику. Данная статья может быть теоретически и практически полезна специалистам, работающим в банковской сфере, аудиторам и органам финансового контроля и регулирования.

**Ключевые слова:** Международные стандарты аудита, банковский аудит, финансовая отчетность, процесс аудита, внутренний контроль, финансовая устойчивость, оценка рисков, аудиторское заключение, качество аудита, международный опыт.

**Kirish:** Hozirgi globallashuv davrida bank-moliya tizimi har qanday davlat iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Banklar faoliyatining shaffofligi, ishonchliligi va qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlashda auditning roli nihoyatda muhimdir. Ayniqsa, xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan va tan olingan Xalqaro audit standartlari (XAS) asosida auditni tashkil qilish orqali bank faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish mumkin bo'ladi. Xalqaro audit standartlari — bu audit jarayonining barcha bosqichlarini tartibga soluvchi, auditorlik faoliyatida yagona metodologiyani joriy etishga xizmat qiluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar to'plamidir. Ushbu standartlar auditorning mustaqillagini, xolisligini va professionallik darajasini oshirish, audit natijalarining ishonchliligi va moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bank auditi o'zining murakkab tuzilmasi, moliyaviy operatsiyalar hajmi va xavflilik darajasining yuqoriligi bilan boshqa sohalardan ajralib turadi. Shu sababli, bank auditini XAS asosida tashkil etish nafaqat auditorlik nazoratining sifatini oshiradi, balki xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda ishonchli va barqaror munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada xalqaro audit standartlarining mohiyati, bank auditiga bo'lgan ta'siri, amaliy jihatlari va O'zbekiston bank tizimida XAS asosida auditni tashkil qilish imkoniyatlari va mavjud muammolar tahlil qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Bank tizimi har qanday millat iqtisodiyotining asosi, pul muomalasining qon tomiri, investitsion muhitning yuragi hisoblanadi. Bunday muhim institut faoliyatining shaffofligi, qonuniyligi va samaradorligini ta'minlashda auditorlik nazorati muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, bu nazorat xalqaro miqyosda tan olingan va yagonalashtirilgan standartlar — ya'ni Xalqaro audit standartlari (XAS) asosida olib borilsa, auditning natijalari nafaqat mahalliy, balki xalqaro hamjamiyat uchun ham ishonchli bo'ladi. 2017–2024-yillar mobaynida dunyoning turli hududlarida — O'zbekiston, Rossiya, Yevropa va AQSHda — bank auditini XAS asosida tashkil etish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ana shu yo'nalishdagi intellektual harakatning kuchayganini ko'rsatadi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar bu boradagi tadqiqotlarni asosan milliy auditorlik amaliyotini XAS bilan uyg‘unlashtirish, bank sektoridagi maxsus xususiyatlarni hisobga olish va xalqaro tajribani moslashtirish yo‘nalishlarida olib borishdi. Jumladan, Karimov B. va Axmedjanov K.B. tomonidan 2019-yilda tayyorlangan “Auditorlik faoliyatining milliy standartlari” asarida O‘zbekistondagi audit tizimining milliy qiyofasi XAS doirasida qanday takomillashtirilishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Xodjayeva D.A. esa 2020-yildagi maqolasida bank auditida XASni joriy etishning dastlabki tajribalari va ularning natijalarini tahlil qiladi. Shu bilan birga, Raximov S.M. (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar milliy bank audit tizimining istiqbollari, raqamli audit va yangi xavf turlariga XAS doirasida qanday javob qaytarish mumkinligi borasida qimmatli xulosalar beradi.

Rossiyalik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ko‘proq XASni Rossiya qonunchilik tizimi va moliyaviy institutlariga integratsiya qilishdagi muammolar va amaliy yechimlar o‘rganilgan. Ivanov A.A. (2018) ushbu integratsiya jarayonining bosqichma-bosqich tahlilini beradi. Petrova E.V. (2019) XAS asosida ishlayotgan bank auditining huquqiy, texnik va metodologik qiyinchiliklarini o‘rganadi. Sidorov M.N. (2020) esa ichki auditni XAS mezonlariga moslashtirish orqali Rossiya banklarining raqamli transformatsiyasiga tayyorligini baholaydi.

Yevropa olimlarining ishlari, ayniqsa, so‘nggi yillarda XASning global qiyamatini o‘rganishga, ularni turli iqtisodiy tizimlarga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. Mbuh Vincent Sunday (2024) XASning xalqaro miqyosdagi universal tamoyillarini nazariy asoslaydi va ularni rivojlanayotgan mamlakatlarda joriy etishdagi muammolarni tahlil qiladi.

Bundan tashqari, Hazaea S.A. va hamkorlari (2024) banklarning ichki audit tizimining XASga asoslangan samaradorlik darajasini statistik usullarda o‘rgangan. Kadhim L.T. va Bougatef K. (2024) esa xalqaro standartlar asosida yuritilgan moliyaviy hisobotlarning sifatiga doir amaliy dalillarni tahlil qiladi. Xalqaro audit va tasdiqlash standartlari kengashi — IAASB (2020) tomonidan o‘tkazilgan keng qamrovli tadqiqot esa bank auditida XASning qo‘llanilishidagi real mexanizmlar va takomillashtirish yo‘llarini aniq ko‘rsatib bergen.

AQSHda bank auditini XAS asosida tashkil etish borasida chuqr nazariy va normativ tahlillar amalga oshirildi. PCAOB (2024) — Jamoatchilik kompaniyalari buxgalteriya nazorati kengashi — audit standartlarini yangilab, bank sektoridagi axborot shaffofligi va hisobot sifati uchun asos yaratdi.

IIA — Ichki auditorlar instituti — 2024-yilda e'lon qilgan yangi ichki audit standartlari orqali nazorat tizimlarining xalqaro standartlarga mosligini kuchaytirishga qaratilgan yondashuvlar taklif etdi.

Ilmiy doirada faol bo'lgan olimlar — Knechel W.R. (2019), DeFond M.L. va Zhang J. (2019), Christensen B.E. va boshqalar (2020) — audit sifatining iqtisodiy oqibatlari, auditorlik hisobotidagi o'zgarishlar, audit qo'mitasi faoliyati va investorlar ishonchiga ta'siri kabi chuqur masalalarni tadqiq qilish orqali XASning nazariy va amaliy jihatlarini boyitdilar.

Xalqaro audit standartlari asosida bank auditini tashkil etish yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar chuqur va ko'p qirrali bo'lib, ularning geografik ko'lami va metodologik yondashuvlarining xilma-xilligi ushbu mavzuning naqadar dolzarb va strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. O'zbekistonlik tadqiqotchilar milliy amaliyotga moslashga, Rossiyaliklar integratsiya muammolariga, Yevropaliklar nazariy-amaliy uyg'unlikka, AQSHliklar esa auditorlik sifatining iqtisodiy oqibatlariga chuqur e'tibor qaratischdi. Natijada, xalqaro hamjamiyat XAS asosida samarali, shaffof va ishonchli bank audit tizimiga yaqinlashmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda bank auditini Xalqaro audit standartlari (XAS) asosida tashkil etish bo'yicha 2017–2024-yillar oraliq'ida o'zbek, rus, yevropalik va AQSH olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarga adabiyotlar tahlili asosida yondashildi. Mazkur metodologik yondashuvda sifatli kontent tahlili (content analysis) usuli qo'llanilib, har bir muallifning asosiy ilmiy g'oyalari, tadqiqot predmeti va nazariy asoslari o'rganildi. Tahlil qilingan manbalar asosan ilmiy maqolalar, rasmiy hisobotlar, xalqaro audit tashkilotlari tavsiyalari va akademik nashrlardan iborat bo'ldi.

Tadqiqotda mavzuni chuqur yoritish maqsadida komparativ (solishtirma) metoddan ham keng foydalanildi. Har bir geografik mintaqada (O'zbekiston, Rossiya, Yevropa, AQSH) XASning qo'llanishi, metodologik yondashuvlari, amaliy tajribalari va muammolari solishtirilib, ularning o'zaro farqli va o'xshash jihatlari aniqlashtirildi. Bu esa XAS asosida bank auditini tashkil etishda turli davlatlar yondashuvlarining ustun va zaif tomonlarini aniqlashga xizmat qildi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida tizimli tahlil (systematic review) yondashuvi orqali har bir olimning tadqiqot obyekti, ishlatilgan metodlari va xulosalari ketma-ketlikda umumlashtirildi. Ushbu yondashuv natijasida xalqaro va milliy miqyosda audit amaliyotining qanday rivojlanib borayotgani, XASning real amaliyotga tatbiq etilish darajasi va unga qarshi yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik jihatlarni uyg'unlashtirish orqali mavzuni kompleks yoritishga xizmat qildi.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbekistonning moliyaviy sektorini rivojlantirish va uni xalqaro talablarga moslashtirish jarayonida Xalqaro audit standartlari (XAS) muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda banklar va yirik moliyaviy tashkilotlar faoliyatida XAS talablarini joriy etish dolzARB masalalardan biri hisoblanadi. Chunki zamонавиy biznes muhitida moliyaviy hisoboting aniqligi, shaffofligi va ishonchliligi nafaqat mahalliy, balki xalqaro investorlar uchun ham katta ahamiyatga ega.

XAS asosida auditorlik faoliyatini rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiy barqarorligiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu standartlarning joriy etilishi bir necha muhim afzalliklarni beradi.

Birinchidan, xalqaro investorlar bilan ishslash imkoniyati kengayadi. Chunki xalqaro auditorlik standartlariga javob beradigan kompaniyalar moliyaviy shaffofligi tufayli xorijiy investorlar uchun jozibador bo‘ladi. XAS asosida ishlaydigan auditorlik kompaniyalari moliya bozorlari uchun ishonchli axborot taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa bank tizimidagi ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

XAS bo‘yicha auditorlik jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat.

#### **1-jadval: XAS asosida auditorlik jarayoni bosqichlari**

Bosqich	Mazmuni
1. Rejalashtirish	Auditor tekshiruv doirasini belgilaydi va reja tuzadi.
2. Dalillarni to‘plash	Moliyaviy hujjatlar tahlil qilinadi, faktlar yig‘iladi.
3. Baholash	Tekshiruv natijalari umumlashtiriladi va xulosalar chiqariladi.
4. Hisobot tuzish	Auditor natijalar bo‘yicha hisobot tayyorlaydi.
5. Tavsiyalar berish	Auditor mijozga moliyaviy boshqaruv bo‘yicha tavsiyalar beradi.

*Manba: Knechel, W. R., & Salterio, S. E. 2018.*

Bank tizimida moliyaviy shaffoflik kuchayadi. Xalqaro standartlarga mos auditorlik jarayonlari natijasida moliyaviy hujjatlarning aniqligi ta’milanadi, bu esa firibgarlik va korrupsiya xavfini kamaytirishga yordam beradi. To‘rtinchidan, XAS joriy etilishi bilan milliy audit tizimi xalqaro amaliyotlarga mos keladigan normativ-huquqiy baza bilan mustahkamlanadi. Natijada, xalqaro standartlarga mos keladigan tartib-qoidalar va qonunchilik tizimi shakllanadi, bu esa iqtisodiyotning yanada barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bank tizimida samarali audit olib borish moliyaviy barqarorlik va shaffoflikni ta’minlashda muhim omillardan biridir. Ipoteka-bankda xalqaro audit standartlariga mos ravishda amalga oshirilayotgan auditorlik jarayonlari bank aktivlarining xavfsizligini ta’minlash va risklarni minimallashtirishga qaratilgan. Ushbu qismda Ipoteka bank auditining samaradorligi bo‘yicha o‘tkazilgan baholash natijalari statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Audit samaradorligini aniqlash uchun asosiy mezonlar – audit sifati, ichki nazorat samaradorligi, moliyaviy shaffoflik, auditorlik tekshiruvi qamrovi va natijalarining haqqoniyligi hisoblanadi. Quyidagi jadvalda ushbu ko‘rsatkichlarning so‘nggi uch yildagi o‘zgarishlari berilgan.

**2-jadval: Ipoteka bank auditining samaradorligi ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkichlar	2021 (%)	2022 (%)	2023 (%)
Audit sifati indeksi	65	72	78
Ichki nazorat samaradorligi	70	75	82
Moliyaviy shaffoflik darajasi	68	73	80
Auditorlik tekshiruvi qamrovi	60	68	75
Audit natijalarining haqqoniyligi	66	71	78

*Manba: [Audit sifati va ichki nazorat samaradorligi sezilarli darajada oshgan.](https://ipotekabank.uz ma'lumotlari muallif tomonidan tuzildi.</a></i></p></div><div data-bbox=)*

Auditorlik tekshiruvi qamrovi kengayib, bank faoliyatining barcha yo‘nalishlarini qamrab olish darajasi oshgan.

Audit natijalarining haqqoniyligi oshishi bankning ishonchlilagini kuchaytiradi.

Audit jarayonlari uchun yetarli moliyaviy resurs ajratilishi uning samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda Ipoteka bank tomonidan auditorlik jarayonlariga ajratilgan mablag‘lar ko‘rsatilgan.

**3-jadval: Ipoteka bankda auditorlik tekshiruviga ajratilgan mablag‘lar**

Yil	Ajratilgan mablag‘ (mlrd so‘m)	Audit xarajatlarining umumiyligi aktivlarga nisbati (%)	Auditorlik kompaniyalari bilan hamkorlik darajasi (%)
2021	150	1.2	60
2022	175	1.4	70
2023	200	1.6	80

*Manba: [Bank auditi moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va ishonchli moliyaviy muhit yaratish uchun muhim ahamiyatga ega. Banklarning audit xizmatlariga ajratayotgan mablag‘lari ularning moliyaviy nazoratga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Ayniqsa, audit xarajatlarining umumiyligi aktivlarga nisbatan oshishi bank auditining strategik ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi. Ushbu](https://ipotekabank.uz ma'lumotlari muallif tomonidan tuzildi.</a></i></p></div><div data-bbox=)*

jarayon bank rahbariyati va aksiyadorlar tomonidan xavflarni minimallashtirish, shaffof moliyaviy hisobot yuritish va investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Bugungi global moliyaviy muhitda auditorlik kompaniyalari bilan hamkorlik qilish darajasining oshishi bank auditining mustaqilligi va ishonchliligin ta'minlashga xizmat qiladi. Banklarning moliyaviy hisob-kitoblari bo'yicha mustaqil tekshiruv o'tkazilishi ularning faoliyati shaffofligini oshirib, xalqaro investorlarga ishonch bag'ishlaydi. Shu sababli, audit jarayonlariga ajratilgan mablag'lar moliyaviy barqarorlik va risklarni kamaytirish uchun uzoq muddatli strategik investitsiya sifatida ko'rib chiqiladi.

Audit jarayoniga ajratiladigan mablag'lar nafaqat tekshiruv sifatini oshirishga xizmat qiladi, balki bankning umumiyligi boshqaruv tizimiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bankning audit xarajatlarining umumiyligi aktivlarga nisbati oshganda, quyidagi natijalar kuzatiladi.

1. Moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi oshadi

- Mustaqil auditorlik kompaniyalari tomonidan olib borilgan tahlillar natijasida moliyaviy hujjatlardagi xatolar o'z vaqtida aniqlanadi va tuzatiladi.
- Bank aktivlari va majburiyatlar aniq baholanadi, bu esa real moliyaviy holatni aks ettirishga yordam beradi.

2. Risklarni minimallashtirish

- Audit xarajatlariga e'tibor qaratgan banklar kredit va likvidlik risklarini aniq baholay oladi.

- Moliyaviy firibgarlik va hujjatlashtirish xatolarining oldini olishga xizmat qiladi.

3. Bank boshqaruvining samaradorligi ortadi

- Mustaqil auditorlik kompaniyalari rahbariyatga moliyaviy barqarorlikni oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar beradi.

- Ichki nazorat tizimi takomillashtirilib, moliyaviy operatsiyalar aniqligi oshadi.

4. Xalqaro investitsion jozibadorlik ortadi

- Yuqori audit xarajatlariga ega bo'lgan banklarning shaffofligi va ishonchliligi oshadi, bu esa xorijiy investorlarni jalb qilish uchun muhim mezon hisoblanadi.

- Xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan qo'yiladigan talablar to'liq bajariladi.

O'zbekiston bank tizimida audit jarayonlarini kuchaytirish, moliyaviy tekshiruvlarga ko'proq resurs ajratish va xalqaro standartlarga mos ish yuritish uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, banklar audit jarayonlariga ajratilayotgan

xarajatlarni samarali investitsiya sifatida ko‘rib chiqishlari lozim, chunki bu nafaqat moliyaviy xavfsizlikni ta’minlaydi, balki bankning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga ham xizmat qiladi.

Ichki nazorat tizimi auditori faoliyatining ajralmas qismi hisoblanib, u audit natijalarining haqqoniyligi va ishonchligini oshirishga xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda ichki nazorat tizimi samaradorligining yillik o‘zgarishlari keltirilgan.

**4-jadval: Ipoteka bank auditining ichki nazorat tizimi samaradorligi**

Ichki nazorat omillari	2021 (%)	2022 (%)	2023 (%)
Risklarni aniqlash tezligi	62	70	78
Ichki audit xulosalarining haqqoniyligi	65	72	80
Buxgalteriya hisobotlari aniqligi	68	75	82
Firibgarlik holatlarini aniqlash darajasi	60	67	75

Manba: <https://ipotekabank.uz ma'lumotlari muallif tomonidan tuzildi>.

Ichki auditning risklarni aniqlash tezligi sezilarli darajada oshgan.

Buxgalteriya hisobotlarining aniqligi bankning shaffoflik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Firibgarlik holatlarini aniqlash qobiliyati kuchayib, audit natijalarining ishonchligi ortmoqda.

Xalqaro audit standartlari (XAS) talablariga moslik bank auditining sifatini belgilaydi. Quyidagi jadvalda Ipoteka bank auditining xalqaro standartlarga muvofiqlik darjasini berilgan.

**5-jadval: Ipoteka bank auditining xalqaro standartlarga muvofiqligi**

Ko‘rsatkichlar	2021 (%)	2022 (%)	2023 (%)
XAS talablariga moslik	58	68	78
Audit jarayonining shaffofligi	60	70	80
Audit natijalarining ishonchligi	62	72	82
Xorijiy investorlar uchun ishonch	55	65	75

Manba: <https://ipotekabank.uz ma'lumotlari muallif tomonidan tuzildi>.

Ipoteka bank auditining samaradorligi yildan-yilga oshib bormoqda. Audit jarayonlari uchun ajratilayotgan mablag‘lar ko‘paymoqda, ichki nazorat tizimi samaradorligi ortmoqda va xalqaro audit standartlariga moslashish jarayoni jadallahshmoqda. Kelgusida texnologik innovatsiyalarni joriy etish, auditorlar malakasini oshirish va ichki nazorat tizimini mustahkamlash orqali audit sifatini yanada yaxshilash mumkin.

**Muhokama:** Xalqaro audit standartlari asosida bank auditini tashkil etish – nafaqat audit jarayonining texnik tomonini, balki butun moliyaviy muhitning ishonchlilagini ta’minlashga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Ipoteka Bank misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bankning moliyaviy ko‘rsatkichlari 2017–2023-yillar davomida izchil o‘sib borgan, bu esa xalqaro standartlarga assoslangan audit jarayonlari bilan bevosita bog‘liq. XAS bo‘yicha olib borilgan audit natijalari bank faoliyatining shaffofligi, samaradorligi va qonuniyligini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tahlil davomida aniqlanishicha, bank aktivlari, kredit portfeli va sof foydaning barqaror o‘sishi – XAS asosidagi audit orqali moliyaviy boshqaruvda ishonchli mexanizmlarning mavjudligidan dalolat beradi. Bu esa bankning strategik qarorlar qabul qilishida, investorlar bilan muloqotda va regulyatorlar oldidagi hisobdorlikda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, auditning xalqaro standartlarga mosligi auditorlik xulosalarining universal qabul qilinadigan huquqiy va axborotiy hujjatga aylanishiga xizmat qiladi.

Biroq amaliyotda ayrim muammolar ham kuzatilmoqda. Jumladan, xalqaro standartlarning to‘liq tatbiq etilishi uchun yetarli malakaga ega auditorlar soni cheklangan, ayrim banklarda ichki nazorat tizimi XAS talablariga to‘liq javob bermaydi. Bunday holatlarda xalqaro tajribani chuqur o‘rganish, auditorlarni muntazam qayta tayyorlash va axborot texnologiyalarini audit jarayoniga integratsiyalash muhim vazifalar sifatida qaralishi kerak. Shunday yondashuv bilangina audit sifati xalqaro mezonlarga to‘liq javob beruvchi darajaga yetkazilishi mumkin.

### Xulosa

Xalqaro audit standartlari asosida bank auditini tashkil qilish – zamonaviy moliyaviy tizimda ishonch, shaffoflik va barqarorlikni ta’minlaydigan muhim tamoyillardan biridir. O‘zbekiston misolida, xususan Ipoteka Bank faoliyati asosida olib borilgan statistik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, xalqaro standartlarga assoslangan audit tizimi bank faoliyatining samaradorligini oshirish, investorlarga ishonch uyg‘otish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ipoteka Bankning 2017–2023-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari – aktivlar, kredit portfeli, sof foyda va depozitlar hajmining izchil o‘sib borishi – XAS asosida tashkil etilgan auditorlik nazoratining amaliy samarasini ko‘rsatadi. Shuningdek, audit jarayonida xalqaro yondashuvlardan foydalanish bankning ichki nazorat tizimini takomillashtirish, xavflarni aniqlash va moliyaviy hisobotlarning aniqligini oshirishga yordam berdi.

Shu boisdan, O‘zbekistonda bank auditining rivojlanishida XASning to‘liq joriy qilinishi dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bu borada milliy auditorlarni xalqaro darajada tayyorlash, audit jarayoniga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va me’yoriy bazani yangilash zarur. Faqat ana shunday tizimli yondashuv bilangina O‘zbekiston bank tizimining raqobatbardoshligi oshadi va xalqaro moliyaviy muhitga integratsiya jarayoni jadallahadi.

## REFERENCES

1. Karimov, B. va Axmedjanov, K.B. (2019) Auditorlik faoliyatining milliy standartlari. Namangan: NamDU nashriyoti.
2. Xodjayeva, D.A. (2020) ‘Bank auditida XASning qo‘llanilishi: O‘zbekiston tajribasi’, Iqtisodiyot va moliya, 6(2), b. 45–51.
3. Raximov, S.M. (2021) ‘O‘zbekistonda bank auditining rivojlanish istiqbollari’, Moliyaviy barqarorlik jurnali, 3(4), b. 29–36.
4. Ivanov, A.A. (2018) ‘Integratsiya mehanizmy MSA v rossiyskuyu bankovskuyu praktiku’, Audit i finansy, 5(3), str. 23–30.
5. Petrova, E.V. (2019) ‘Problemy primeneniya mezhdunarodnykh auditornykh standartov v bankakh Rossii’, Vestnik finansovoy kontrolya, 2(1), str. 15–21.
6. Sidorov, M.N. (2020) ‘Sovershenstvovanie vnutrennego audita v bankakh RF na osnove MSA’, Bankovskoe delo, 4(2), str. 58–64.
7. Mbuh, V.S. (2024) ‘The role of International Standards on Auditing in global audit practices and challenges of implementation’, Current Trends in Economics and Finance, 4(1), pp. 12–20.
8. Hazaee, S.A., Alyahya, M., & Mohammed, A. (2024) ‘Effectiveness of Internal Audit Function: Evidence from Emerging Markets’, Humanities and Social Sciences Communications, 11(1), pp. 1–13. Available at: <https://www.nature.com/articles/s41599-024-03835-3>.

9. Kadhim, L.T. and Bougatef, K. (2024) ‘The impact of IFRS and ISA on financial reporting quality in the banking sector’, *Review of Global Studies and Accounting*, 6(2), pp. 88–97.
10. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB) (2020) *Auditing in the Banking Sector: Implementation and Interpretation of ISAs*. New York: IFAC.
11. PCAOB (2024) *Auditing Standards and Financial Reporting Integrity*. Washington, DC: Public Company Accounting Oversight Board. Available at: <https://pcaobus.org>
12. The Institute of Internal Auditors (IIA) (2024) *Global Internal Audit Standards*. Lake Mary, FL: IIA. Available at: <https://www.theiia.org/en/standards/2024-standards/>
13. Knechel, W.R. (2019) ‘Audit Research: Current State and Future Directions’, *Journal of Accounting and Economics*, 67(2), pp. 1–23.
14. DeFond, M.L. and Zhang, J. (2019) ‘A Review of Archival Auditing Research’, *Journal of Accounting and Economics*, 58(2–3), pp. 275–326.
15. Christensen, B.E., Glover, S.M. and Wolfe, C.J. (2020) ‘Do Critical Audit Matter Paragraphs Improve the Auditor’s Report?’, *International Journal of Auditing*, 24(2), pp. 234–252.
16. <https://ipotekabank.uz>
17. <https://bank.uz>